

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**M.F.Gaybullayeva**

No'xat navlarini o'sishi, rivojlanishi bilan oziqlantirish me'yorlarining ta'siri bo'yicha olib borilgan mahalliy va xorijiy ilmiy tadqiqotlar ..... 835

**Sh.M.Xalmatova, G.M.Maxsudova**

Sun'iy quvursimon kovaklardan foydalanib suv eroziyasiga qarshi kurashning samarasi ..... 838

**M.T.Abdullayeva, F.R.Qurolova**

Farg'ona viloyati adirlarida tarqalgan o'simlik turlari ..... 841

**S.A.Mamatqulova, T.E.Usmanova, I.R.Asqarov**

Determination of the amount of paulownia flowers and vitamins in their composition ..... 847

**M.T.Abdullayeva, M.Nazarov**

Tuproqni sog'lomlashtirishda mikroorganizmlar va mayda hayvonlarning ahamiyati ..... 850

**M.Nazarov Mamadali, Sh.M.Khalmatova**

Soil pollution by waste and measures to it prevent ..... 854

**D.M.Ahmedova, M.A.Boynazarova, H.S.Turdimatova**

Hovuz biotsenozining ekologik xususiyatlari ..... 857

**D.M.Ahmedova, H.S.Turdimatova**

Tut o'simligi navlarining bioekologiyasi ..... 862

**Sh.M.Xalmatova, G.M.Maxsudova**

O'quvchilarda ekologik tarbiya berishda sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar ..... 868

---

**ILMIY AXBOROT****Z.V.Alimova, M.A.Usmanova**

Navoiyning "Saddi Iskandariy" asaridagi ayrim forscha-tojikcha leksemalar  
va forsiy izofa haqida ..... 871

**X.A.Abdulxamidova, M.S.Sobirova**

Isajon Sultoning "Ozod" romanida intertekstuallik ..... 876

**M.A.Jo'rayeva**

Abdulla Avloniy ijodida safarnomaning o'rni ..... 880

**A.A.Qayumov, M.Sh.Abdurahimova**

Qo'chqor Norqobil qissalarida psixologik tasvir va psixofiziologik holat masalasi ..... 884

**I.I.Rustamova, D.A.Abduvahobova**

Isajon Sultonning "Boqiy darbadar" asarining badiiy xususiyatlari ..... 887

**A.G.Sabirdinov**

Iqbol Mirzo she'riy mahorati haqida ..... 890

**A.A.Qayumov**

Hastalangan ruhiyat tasviri ..... 894

**R.M.Umurzakov**

Avtobiografik qissalarda bola obrazi ..... 899

**Q.V.Yo'lichev, A.Charos**

Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" va georgiy pryaxinning "Sarob" romanlarida  
ironiyaning o'rni ..... 903

**Z.V.Alimova**

Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidagi "Ganj" va "Gavhar" istilohlari bilan bog'liq  
leksemalar xususida ..... 907

**G.A.Ikromova**

Dramalar tilida antroponomislarning qo'llanilishi (Sharof Boshbekov dramalari misolida) ..... 913

**I.M.Naimjonova, Sh.A.Ganiyeva**

Tilshunoslikda maydon tushunchasiga nazariy yondashuvlar ..... 918

**N.A.Abduvaliyeva**

Alisher Navoiy g'azallarida qo'llangan fors-tojikcha so'zlarning tahlili masalasi ..... 922

**A.R.Dadajonov**

Muhokama nutqining kompozitsion qurilishi ..... 927

**D.R.Teshaboyev**

Havola bo'laklı ergash gapli qo'shma gaplarda mazmuniy qorishiqlik ..... 930

**I.T.Axmадjonov, A.R.Dadajonov**

Kelishik shakllari sinonimiyasining semantik xususiyatlari ..... 936



УО'К: 81'367.335+811.512.133 (082)

**HAVOLA BO'LAKLI ERGASH GAPLI QO'SHMA GAPLARDA MAZMUNIY  
QORISHIQLIK**

**СИНКРЕТИЗМ В ПРИДАТОЧНЫХ ЧАСТЯХ СЛОЖНОПОДЧИНЁННОГО  
ПРЕДЛОЖЕНИЯ**

**SYNCRETISM IN SUBORDINATE CLAUSES OF COMPLEX SENTENCES**

Teshaboyev Dilmurod Raxmadjonovich 

Farg'ona davlat universiteti, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada havola bo'lakli ergash gapli qo'shma gaplarda kuzatiladigan mazmuniy qorishiqlik hodisasi, sinkretik belgining qo'shma gaplarda voqelanishi va bu belgiga ko'ra havola bo'lakli ergash gapli qo'shma gaplarning turlari tahlilga tortilgan. Tilning sintaktik birligi hisoblangan qo'shma gaplarni tizimli o'rganish, ularning mazmuni va ahamiyatini kelajak avlodga yetkazish hozirgi kunda har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Qo'shma gap mavzusi ko'p yillardan beri o'zbek tilshunoslarining diqqatini o'ziga jalb etib kelayotgan muammolardan biridir. Shuni ta'kidlash lozimki, bu mavzu tilshunoslikning keng o'rganilgan sohalaridan biri bo'lsa ham, lekin haligacha ushbu muammolar to'liq hal etilgan deb bo'maydi. Shuningdek, mazmuniy qorishiqlik (sinkretik) belgisiga ko'ra ergash gapli qo'shma gaplar, ulardagi sinkretik mazmuniy munosabatlarning turli grammatisk vositalar bilan yuzaga chiqishi va mazmuniy qorishiqlik ergash gapli qo'shma gaplarning semantik va struktur begilarini o'rganish, qo'shma gaplarning bu turini sinkretik belgi asosida tafsiflash, shu bilan birga, ergash gapli qo'shma gaplarga xos lisoniy masalalarni turli aspektida o'rganishning lingvistik omillarini belgilash orqali mazkur muammo doirasidagi yangi qirralarni kashf etish bo'yicha ilmiy qarashlar va xulosalar berilgan.

**Аннотация**

В данной статье анализируется явление семантической путаницы, наблюдаемое в союзах с придаточными придаточными, возникновение синкремтического признака в придаточных предложениях и виды придаточных с придаточными по этому признаку. Систематическое изучение сложных предложений, которые являются синтаксической единицей языка, передающей их смысл и значение будущему поколению, становится как никогда важным. Тема сложных предложений является одной из проблем, которая уже много лет привлекает внимание узбекских лингвистов. Следует отметить, что хотя данная тема и является одной из широко изучаемых областей языкоznания, нельзя сказать, что эти проблемы еще полностью решены. Также по признаку смысловой путаницы (синкремтичности) союзов с деепричастными предложениями, появления в них синкремтических смысловых отношений с разными грамматическими средствами, а также изучения семантических и структурных особенностей предложений с содержательно смешанными деепричастными предложениями осуществляется описание этих придаточных предложений. типа на основе синкремтического признака, при этом приводятся научные взгляды и выводы об открытии новых аспектов в рамках данной проблемы путем определения лингвистических факторов изучения языковых вопросов, характерных для союзов с наречиями. статьи в разных аспектах.

**Abstract**

In this article, the phenomenon of semantic confusion observed in conjunctions with relative clauses, occurrence of syncretic sign in clauses and the types of clauses with relative clauses according to this sign are analyzed. Systematic study of compound sentences, which are the syntactic unit of the language, conveying their meaning and importance to the future generation is becoming more important than ever. The subject of compound sentences is one of the problems that has been attracting the attention of Uzbek linguists for many years. It should be noted that even though this topic is one of the widely studied areas of linguistics, these problems cannot be said to have been fully resolved yet. Also, according to the sign of semantic confusion (syncretic) conjunctions with adverbial clauses, the appearance of syncretic meaningful relations in them with different grammatical means, and the study of the semantic and structural features of clauses with substantively mixed adverbial clauses, these clauses description of the type on the basis of a syncretic sign, at the same time, scientific views and conclusions are given on the discovery of new aspects within the scope of this problem by determining the linguistic factors of the study of linguistic issues specific to conjunctions with adverbial clauses in different aspects.

**Kalit so'zlar:** qo'shma gap, ergash gapli qo'shma gap, predikativ birlik, ergash predikativ birlik, bosh predikativ birlik, mazmuniy qorishiqlik, sinkretizm, havola bo'lak, mazmuniy qorishiqlik havola bo'lakli qo'shma gap

## ILMIY AXBOROT

**Ключевые слова:** союз, придаточное предложение, предикативная единица, придаточная предикативная единица, главная предикативная единица, семантическая сложность, синкремизм, придаточное предложение, предметно-сложное предложение с придаточным предложением.

**Key words:** conjunction, subordinate clause, predicative unit, subordinate predicative unit, main predicative unit, semantic complexity, syncretism, relative clause, substantive complex clause with relative clause.

## KIRISH

Qurilish materiali monopredikativ birliklar bo'lgan qo'shma gaplar (qo'shma gaplar)ga doir masalalarning hal qilinishida rus tilshunosligi va turkologiyaga doir materiallar asosiy manba bo'lib xizmat qildi.

Qo'shma gaplarning tabiatini, kelib chiqish yo'llari, ularning turlari, qo'shma gap komponentlarini bog'lovchi grammatik vositalar haqida A.M.Peshkovskiy, F.I.Buslayev, V.A.Bogoroditskiy, F.F.Fortunatov, A.A.Potebnya, A.A.Shaxmatov, V.V.Vinogradov, S.I.Abakumov kabi tilshunos olimlar o'zlarining qimmatli fikrlarini aytib o'tganlar. Bu esa, o'z navbatida, o'zbek tilshunosligida qo'shma gaplarga doir masalalarning hal qilinishiga katta yordam berdi.

O'zbek tilshunosligida o'zining intonatsion va struktural-semantik belgilari bilan sintaktik sathning boshqa birliklaridan farqlanib turuvchi qo'shma gaplarni tadqiq etish XX asrning 40-, 60-yillaridan boshlandi [3, 4, 6, 11, 16, 20, 22]. Qo'shma gaplarni mukammal tahlil etish, ularning xususiyatlarini keng va atroflicha o'rganish borasida ko'plab lingvistik izlanishlar amalga oshirildi [7, 8, 17, 18, 19, 21, 23, 24, 25, 26, 27].

Ergash gapli qo'shma gaplar boshqa til sathi birliklariga nisbatan struktur-semantik jihatdan ancha murakkab lisoniy birlik bo'lganligi sababli, u haqidagi qarashlar va talqinlar ham munozarali, ham turlicha. Ergash gapli qo'shma gaplarga xos bunday murakkablik ularga berilgan ta'rif va tavsiflarning xilma-xilligini ko'rsatadi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ergash gapli qo'shma gaplar tizimida uchrovchi hodisalardan biri bu mazmuniy qorishiqlik hodisasiidir. Turli sath birliklariga mansub bo'lgan mazkur hodisa tilshunoslikda kam o'rganilgan masalalardan biri sanaladi [29, 5]. Barcha sath birliklariga aloqador bo'lgan qorishiqlik sinkretizm atamasi bilan bog'liq.

Sinkretizm atamasi tilshunoslik faniga nemis olimi Avgust Fridrix Pott tomonidan XIX asrning 40-yillarida kiritilgan bo'lib, olim o'zining "Hind-Yevropa tillarining etimologik tadqiqi" deb nomlangan asarida otlardagi kelishik shakllari va fe'llardagi shaxs-son shakllarining qorishiqligini sinkretizm deb ataydi [10].

Sinkretizm atamasi zamонавиyl til sistemasida kuzatiladigan hodisa sifatida XX asrda L.Yelmslev va R.Yakobsonlar tomonidan ta'kidlab o'tilgan [15, 30]. L.Yelmslev sinkterizm hodisasini invariantlar o'rtasidagi bog'lanishlarning sharoitdan kelib chiqqan holda yo'qolishi natijasida paydo bo'lismeni aytib o'tadi [15]. R.Yakobson esa o'zining "Kelishik haqida umumiyl ta'limot bo'yicha: rus tili kelishiklarining umumiyl ma'nosi" asarida "kelishiklar sinkretizmi" atamasiga batafsil to'xtalib o'tadi. Olim rus tilidagi bir necha kelishik shakllari yoki ayni bir kelishikning birlik, ko'plik shaklidagi ko'rsatkichlarining nutqiy vaziyatda (gap tarkibida) bir xil shaklda ishlatalishini sinkretizm hodisasi ekanligini ta'kidlaydi [30].

A.Martine sinkretizm hodisasining bir strukturada ikkita bir xil shaklning har xil funksiya bajarishi bilan yuzaga chiqishi va undagi qorishiqlik hodisasini kuzatish uchun har xil funksiya bajaruvchi bir xil shaklli konstruksiya tahlil qilinishi kerakligini ko'rsatib o'tadi. E.Smirz bir grammatik o'zgargan shaklning turli morfosintaktik qurilmalarga mos kelishini sinkretizm deb baholaydi va bu hodisani tilning morfologik va sintaktik sathlariga aloqador ekanligini aytib o'tadi [2].

Sinkretizm atamasining ikki xil ma'noda ishlatalishi bir qator ishlarda aytib o'tilgan. Xususan, O.Denisovaning fikricha, tildagi aniq bir hodisani, ba'zan o'zarlo zidlangan hodisalarning bir butunligi, qorishiqligi sinkretizmning birinchi ma'nosi, ikki zidlanuvchi orasidagi chegaralarning olib tashlanilishi esa sinkretizmning ikkinchi ma'nosidir [13]. V.Beresnova esa til shakllarining sinkretikligi sinkretizmning birinchi ma'nosi, uning tilga aloqador hodisa ekanligi sinkretizmning ikkinchi ma'nosi hisoblanadi [9].

Lingvistik tadqiqotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, sinkretizm hodisasi jahon tilshunosligida bir necha turlarga bo'lib tasnif qilingan. Xususan, R.Yakobson mazkur hodisaning to'liq va qisman sinkretizm [30], L.Yelmeslev kolessensiya va implikatsiya usulida yuzaga

keladigan sinkretizm [15], M.Beermen, D.Braun, G.Korbetlar sodda sinkretizm, uyadosh sinkretizm, qarama-qarshi sinkretizm, qutblanish effektlari [1], V.Beresnova bir kategoriya doirasidagi va kategoriyalararo sinkretizm [9], O.Denisova esa gorizontal (bir sath doirasidagi) va vertikal (sathlararo) sinkretizm, sistemaviy va okkazional sinkretizm [13] deb nomlanuvchi turlarga ajratib o'rganish mumkinligini ta'kidlab o'tadilar.

### NATIJA VA MUHOKAMA

Ergash gapli qo'shma gaplarga xos talqinlarning turlichaligi va zid fikrlarning mavjudligi mazkur sintaktik birlklarda mazmun qorishiqligiga, ya'ni ergash gapli qo'shma gaplarning sinkretik tabiatiga ishora qiladi. Mazumniy qorishiq birlklar sifatida ko'zga tashlanuvchi ergash gapli qo'shma gaplar nutq jarayonida xilma-xil funksiyalari bilan namoyon bo'ladi.

Sintaktik konstruksiyalardagi mazmuniy qorishiqlik tilning mazmun tomoni bilan bog'liq bo'lgan sintaktik omonimiya va sintaktik polisemiya hodisalariga o'xshab ketadi. Bu esa mazmuniy qorishiqlik hodisasini sintaktik omonimiya va sintaktik polisemiyaga yondosh hodisa sifatida tadqiq qilish imkonini beradi. Masalan: *Mumtoz adabiyotimiz namunalari orasida ba'zan shunday baytlar, misralar borki, ularni mutolaa qilgan inson qalbi va ruhiyatida ajib bir o'zgarish, poklanish sodir bo'lganini his etadi.* (E.Vohidov)

Tahlilga tortilgan yuqoridagi misolda birdan ortiq mazmuniy munosabat bir sintaktik konstruksiyada qorishiq holatda kelgan va unda bir vaqtning o'zida ham aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap, ham daraja-miqdor mazmuni dagi ergash gapli qo'shma gapga xos semantik munosabatning ifodalanganligini ko'rish mumkin.

Bitta sintaktik konstruksiyada birdan ortiq mazmuniy munosabatning qorishiq holda kelganligini aniq tasavvur qilish uchun ba'zan tahlil qilinayotgan lisoniy birlikni sintaktik sinonimik paradigmadagi boshqa bir ma'nodosh variantlarida qo'llash ham yaxshi samara beradi. Masalan: *Mumtoz adabiyotimiz namunalari orasida ba'zan ularni mutolaa qilgan inson qalbi va ruhiyatida ajib bir o'zgarish, poklanish sodir bo'lganini his etadigan baytlar, misralar bor.* Ushbu sintaktik birlikning mazmuniy munosabati predmet va uning belgisida namoyon bo'ladi.

*Mumtoz adabiyotimiz namunalari orasidagi bayt va misralar ularni mutolaa qilgan inson qalbi va ruhiyatida ajib bir o'zgarish, poklanish sodir bo'lganini his etadigan darajada.* Ushbu sintaktik birlikning mazmuniy munosabati belgi-xususiyatning darajalab ko'rsatilishida.

Mazmuniy qorishiqlikning yuzaga chiqishida birdan ortiq ergash gapli qo'shma gaplarning mazmuniy munosabati bir pozitsiyada birlashadi, ya'ni bir ergash gapli qo'shma gap o'z tarkibiy qismida ikki va undan ortiq ergash gapli qo'shma gaplarga xos bo'lgan mazmuniy munosabatlarni mujassam etadi. Bu esa mazmuniy qorishiqlik hodisasini sintaktik sath birlklaridagi "lingvistik ekonomiya"ning [14] eng yuqori bosqichi ekanligini ko'rsatadi.

Havola bo'laklar yordamida birikkan ergash gapli qo'shma gaplarda ham ega, aniqlovchi, to'ldiruvchi, o'rin, payt, natija, o'chov-daraja kabi turli sintaktik birlklarga xos bo'lgan mazmuniy qorishiqlik kuzatiladi. Tadqiq qilinayotgan mazkur hodisa havola bo'laklı ergash gapli qo'shma gaplarning har ikkala turida ham uchraydi:

- 1) bir havola bo'laklı mazmuniy qorishiq ergash gapli qo'shma gaplar;
- 2) ikki havola bo'laklı mazmuniy qorishiq ergash gapli qo'shma gaplar.

I. Mazmuniy qorishiqlik hodisasi bir havola bo'laklı ergash gapli qo'shma gaplarda bosh predikativ birlikka nisbatan ergash predikativ birlikning aniqlovchi va hol vazifasida kelgan turlaridagina uchraydi, ya'ni bir havola bo'laklı aniqlovchi va hol ergash gapli qo'shma gaplarda mazmuniy sinkretiklik kuzatiladi. Ergash gapli qo'shma gaplarning bu turida izohlovchi predikativ birlik izohlanuvchi predikativ birlikka *shunday, shundayin, shunaqa, shunaqangi, shu qadar, shu darajada* kabi havola bo'laklar yordamida birikadi, bu bog'lovchi vazifasidagi vositalar bosh predikativ birlik tarkibida keladi va izohlanuvchi predikativ birlikning kesimi -ki aniqlov ergashtiruvchi bog'lovchisi bilan shakllangan bo'ladi.

Mazmuniy qorishiq ergash gapli qo'shma gaplarning bu turida *tarz – natija, o'chov-daraja – natija, natija – o'chov-daraja, natija – sabab, tarz – o'chov-daraja, to'siqsizlik – payt, predmet belgisi mazmunini ifodalovchi (aniqlovchi) – sabab – natija, o'chov-daraja – predmet belgisi mazmunini ifodalovchi (aniqlovchi) – natija* mazmuni dagi ergash gapli qo'shma gaplarga xos mazmuniy munosabatlar qorishiq kelgan bo'ladi. Masalan,

## ILMIY AXBOROT

1. Ko'ngilning davlati va mulki shundayin bir yuqori sifatdirki, uni so'z bilan vasf qilib bo'lmaydi. (T.Malik "Odamiylik mulki") 2. U shu qadar dadil fikrlarni o'rta ga tashladiki, muhokama janjalga aylanib ketdi. (O'.Hoshimov "Hikoyalar")

Yuqorida tahlilga tortilgan ergash gapli qo'shma gaplarning tarkibiy qismlari shundayin, shu qadar havola bo'laklari yordamida birikkan bo'lib, bu sintaktik birlıklar mazmuniy qorishiq ergash gapli qo'shma gaplar paradigmاسini tashkil etadi. Gaplardagi mazmuniy qorishiqlik hodisasini quyidagicha izohlash mumkin.

*Ko'ngilning davlati va mulki shundayin bir yuqori sifatdirki, uni so'z bilan vasf qilib bo'lmaydi.* Ushbu ergash gapli qo'shma gapdagi mazmuniy qorishiqlik aniqlovchi (predmet belgisi – uni so'z bilan vasf qilib bo'lmaydigan sifat), o'Ichov-daraja (predmetning o'Ichov-daraja belgisi – uni so'z bilan vasf qilib bo'lmaydigan darajadagi sifat) va natija (predmetning natija belgisi – natijasi so'z bilan vasf qilib bo'lmasligidadir) ergash gapli qo'shma gaplarga xos.

*U shu qadar dadil fikrlarni o'rta ga tashladiki, muhokama janjalga aylanib ketdi.* Bir havola bo'lakli ergash gapli qo'shma gaplar tizimiga mansub ushbu gapda *natija* (uning dadil fikrlarni o'rta ga tashlashining natijasi – muhokamaning janjalga aylanib ketishidir), *sabab* (u nimaga sabab bo'ladigan dadil fikrlarni o'rta ga tashladi – muhokama janjalga aylanib ketishiga sabab bo'ladigan), o'Ichov-daraja (u qanchalik dadil fikrlarni o'rta ga tashladi – muhokama janjalga aylanib ketadigan darajadachalik) va *aniqlovchi* (u qanday dadil fikrlarni o'rta ga tashladi – muhokama janjalga aylanib ketadigan fikr) mazmunidagi sintaktik birlıklarga xos mazmuniy munosabatlar mavjud. Bu mazmuniy munosabatlardan natija mazmuni asosiy belgi, sabab, o'Ichov-daraja va predmet belgisini ifodalovchi mazmunlar esa asosiy bo'limgan mazmun hisoblanadi.

Shuni aytish kerakki, turlicha tobe munosabatli qo'shma gaplarga xos mazmuniy munosabatning qorishiq holda kelishi murakkab sintaktik birlikning yo bosh predikativ birligida yoki ergash predikativ birligida bo'lmaydi. Izohlanuvchi yoki izohlovchi predikativ birlıklarning yakka o'zi boshqa turdag'i ergash gapli qo'shma gaplardagi mazmuniy munosabatni yuzaga chiqarmaydi. Aksincha, ergash gapli qo'shma gaplardagi mazmuniy qorishiqlik qismlarning binar (ikki tomonlama) munosabatidan hosil bo'luchchi sintagmatik vaziyat bilan o'chanadi. Ya'ni mazmuniy qorishiqlikda bosh va ergash predikativ birlıklarning munosabati teng ahamiyat kasb etadi.

*Shunday tarbiya qilish lozimki, toki farzand tayyor oshdan emas, mehnat bilan topilgan luqmadan rohatlansin.*

Yuqoridagi sintaktik birlik ham tarz, ham natija, ham o'Ichov-daraja mazmunidagi hol ergash gapli qo'shma gaplarga xos bo'lgan mazmuniy munosabatni ifodalaydi.

Bosh predikativ birlikdan anglashilgan harakatning tarz belgisi (*Farzandni qanday tarbiya qilish lozim*) – *farzand tayyor oshdan emas, mehnat bilan topilgan luqmadan rohatlanadigan tarzda*.

Bosh predikativ birlikdan anglashilgan harakatning natija belgisi (*Farzandni tarbiya qilishning natijasi qanday yakunlanishi kerak*) – *tarbiyaning natijasida farzand tayyor oshdan emas, mehnat bilan topilgan luqmadan rohatlansin*.

Bosh predikativ birlikdan anglashilgan harakatning o'Ichov-daraja belgisi (*Farzandni qay darajada tarbiyalash lozim*) – *farzand tayyor oshdan emas, mehnat bilan topilgan luqmadan rohatlanadigan darajada*.

Demak, lisoniy dalillar tahlilidan shuni ko'rish mumkinki, bir havola bo'lakli aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplarda *narsa belgisi* – *narsaning o'Ichov-daraja belgisi; narsa belgisi* – *predmetning o'Ichov-daraja belgisi* – *belgining natijasini ifodalovchi uch xil turdag'i (aniqlovchi, o'Ichov-daraja, natija mazmunidagi ergash gapli qo'shma gap)* sintaktik qurilmalarga xos bo'lgan mazmuniy munosabat qorishiq holda keladi.

Bir havola bo'lakli hol ergash gapli qo'shma gaplarda esa o'Ichov-daraja – *chog'ishtiruv; o'Ichov-daraja – natija; natija – o'Ichov-daraja; natija – sabab; tarz – natija – o'Ichov-daraja; natija – o'Ichov-daraja – sabab; natija – sabab – o'Ichov-daraja – aniqlovchi* kabi ergash gapli qo'shma gaplarga xos bo'lgan mazmuniy qorishiqlik bir paradigmaga teng keladi.

Bir havola bo'lakli ega, kesim, to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplarda boshqa turdag'i ergash gapli qo'shma gaplarga xos mazmuniy qorishiqlik kuzatilmaydi.

1. *Kuzatuvlardan aniqki, bolalar va o'smirlar fe'l-atvorining shakllanishida bo'sh vaqt dan to'g'ri foydalanish g'oyat muhim ekani tan olingani holda bu zarur masala yechimiga e'tiborsiz*

qaraladi. (T.Malik "Halovat") 2. "Musulmonning uyi jannat bog'idan bir bog'chadir", deganlar. Bundan ibrat shuki, "jannatda o'sgan" qizga uylangan arning boshiga baxt qushi qo'nibdi. (T.Malik "Halovat") 3. Payg'ambarimiz (s.a.v.) shuni marhamat qilganlarkim: «Insonlarning axloqi buzilganida va ixtiloflar avjiga chiqqanida Alloh rasulining go'zal axloqini namoyon qilgan odamga yuz shahidning savobi beriladi (T.Malik "Odamiylik mulki")

Yuqoridagi bir havola bo'lakli ergash gapli qo'shma gaplarning birinchisida faqat ega ergash gapli qo'shma gapga xos, ikkinchi sintaktik birlilikda kesim ergash gapli qo'shma gapga xos, uchinchi ergash gapli qo'shma gapda esa to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplargagina xos bo'lgan mazmuniy munosabat mavjud bo'lib, bu sintaktik konstruksiyalarda boshqa turdag'i ergash gapli qo'shma gaplarga xos mazmuniy munosabat kuzatilmaydi.

II. Ikki havola bo'lakli mazmuniy qorishiq ergash gapli qo'shma gaplar. O'rganilayotgan hodisa bir havola bo'lakli ergash gapli qo'shma gaplarga nisbatan ergash gapli qo'shma gaplarning bu turida juda ko'p uchraydi. Sababi ikki havola bo'lakli ergash gapli qo'shma gaplarning barcha turi mazmuniy qorishiqlik belgisiga ega. Masalan,

1. *Kim birovga yomonlik qilsa, u shu dunyoning o'zidayoq jazosini ko'radi. (Hadis)* 2. *Kim rahmni (qarindoshlikni) uzmasdan yursa, Men undan rahmatimni uzmayman. (T.Malik "Odamiylik mulki")* 3. *Qayerda ahllik bo'lsa, o'sha yerda qut-baraka bo'ladi. ("Hikmatlar shodasi")*

Tahlilga tortilgan yuqoridagi sintaktik birliliklarning barchasida ikki va undan ortiq ergash gapli qo'shma gaplarga xos bo'lgan mazmuniy munosabat mavjud bo'lib, har biri mazmuniy qorishiqlik belgisiga ega. Shunga asosan, yuqoridagi ikki havola bo'lakli ergash gapli qo'shma gaplarni quyidagicha izohlash mumkin.

Lisoniy dalillarning barchasida ikki va undan ortiq ergash gapli qo'shma gaplarga xos mazmuniy munosabat kuzatiladi. Xususan, *Kim birovga yomonlik qilsa, u shu dunyoning o'zidayoq jazosini ko'radi* gapida ega – payt; *Kim rahmni (qarindoshlikni) uzmasdan yursa, Men undan rahmatimni uzmayman* sintaktik birligida to'ldiruvchi – shart – payt; *Qayerda ahllik bo'lsa, o'sha yerda qut-baraka bo'ladi* havola bo'lakli sintaktik birligida o'r'in – shart – payt – sabab mazmuniy munosabatlari bir paradigmaga teng keladi.

## XULOSA

Xulosa sifatida aytish mumkinki, til sathiga tegishli bo'lgan mazmuniy qorishiqlik polisemiya, polifunktionallik, konversiya deb ataluvchi hodisalar bilan o'zaro yaqin munosabatda bo'lsa ham, lingistik belgining shakl va mazmun o'rtaqidagi munosabatning namoyon bo'lish belgisi bilan farqlanadi.

Mazmuniy qorishiqlik tilning ikki tomonlama mohiyatiga ega bo'lgan barcha sath birliklariga mansub bo'lib, shakl va mazmun butunligidan tashkil topadi hamda o'zida shakl va mazmun dialektikasini namoyon qiladi. Ergash gapli qo'shma gaplardagi shakl va mazmun asimetriyasi (nomuvofiqligi)ga mazmuniy qorishiqlik (sinkretizm) sabab bo'ladi.

Bir havola bo'lakli ergash gapli qo'shma gaplarda "Tarz – Natija", "O'ichov-daraja – Natija", "Natija – O'ichov-daraja", "Natija – Sabab", "Tarz – O'ichov-daraja", "To'siqsizlik – Payt", "Predmet belgisi mazmunini ifodalovchi (aniqlovchi) – Sabab – Natija", "O'ichov-daraja – Narsa belgisi mazmunini ifodalovchi (aniqlovchi) – Natija" kabi mazmuniy munosabatlar qorishiq holda keladi.

Ikki havola bo'lakli to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplarda "To'ldiruvchi EGQG", "Payt EGQG", "Shart EGQG", "Aniqlovchi EGQG", ikki havola bo'lakli hol ergash gapli qo'shma gaplarda esa "O'r'in EGQG", "Payt EGQG", "Shart EGQG", "Tarz EGQG", "Sabab EGQG", "O'ichov-daraja EGQG" va "To'siqsiz EGQG" larga xos mazmuniy munosabatlar sinkretik tarzda namoyon bo'ladi.

Umuman olganda, qo'shma gaplar tadqiqi bilan aloqador muammolar talaygina. Bu masalalar hozirgi kunda o'zbek tili sintaksisi oldida turgan va atroficha o'rganishni taqozo etuvchi muammolar sirasiga kiradi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Beerman M., Brown D., Corbett G.G. (2005). The Syntax-Morphology Interface. A Study of Syneratism. – Cambridge: Cambridge University Press, 13-17.
2. Smims A.D. (2017). Syncretism (an example of a form-meaning mismatch). – The Ohio State University, 2.
3. Абдураҳмонов F.A. (1958). Кўшма гап синтаксиси асослари. Т.: ЎзФА нашириёти.
4. Абдураҳмонов F.A. (1964). Кўшма гап синтаксиси. Т.: Фан.
5. Адмони В.Г. (1964). Основы теории грамматики. М.

ILMIY AXBOROT

6. Асқарова М. (1964). Ҳозирги замон ўзбек тили ва қўшма гаплар. Тошкент.
7. Бердиалиев А. (1989). Эргаш гапли қўшма гап конструкцияларида семантик-сигнификатив парадигматика. Т.: Фан.
8. Бердиалиев А. (1990). Ўзбек тилида омоним моделли эргаш гапли қўшма гаплар. Т.: Фан.
9. Береснова В.А., 2012. <https://cyberleninka.ru/article/n/linvisticheskiy-sinkretizm-kak-aktualnaya-kategoriya-sovremennoogo-yazykoznanija>
10. Ганиева Д. (2022). Турли тизимдаги тилларга мансуб феълларда синкетизм ва полифункционаллик. Андижон, 8.
11. Фозиев Ҳ. (1941). Ҳозирги замон ўзбек адабий тилидаги қўшма гапларнинг состави ҳакида // Ўзбек тили илмий грамматикасидан материаллар. Т.: 127-156.
12. Ғуломов А., Асқарова М. (1987). Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. З-нашри. Т.: Ўқитувчи, 171-240.
13. Денисова О.И. (2016). Вертикальный синкетизм в языке и речи (фонетический и лексический уровни). Ростов н/Д.: Фонд науки и образования, 9.
14. Ейгер Г.В. (1967). Сложные предложения с совмещением сказуемых в современном немецком языке. АҚД. М.: 5.
15. Ельмслев Л. (2006). Пролегомены к теории языка. М.: КомКнига, 108.
16. Камол Ф. (1955). Қўшма гапларга доир масалалар. Т.: Ўзфанакадемнашр.
17. Мамажонов А. (1990). Қўшма гап стилистикаси. Тошкент.
18. Маҳмудов Н., Нурмонов А. (1995). Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Синтаксис. Тошкент.
19. Маҳмудов Н.М. (1984). Семантико-синтаксическая асимметрия-а простом предложении узбекского языка. Докт. Диссертация. Ташкент.
20. Маъруфов А. (1949). Ҳозирги замон ўзбек тилида пайт эргаш гаплар. Дис. Фил.фан.ном. Тошкент. 122.
21. Нурмонов А., Маҳмудов Н., Аҳмедов А., Солихўжаев С. (1992). Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. Т.: Фан.
22. Рустамов Ҳ. (1960). Ҳозирги замон ўзбек тилида тўлдирувчи эргаш гапли қўшма гаплар. Филол.фан.ном. дис. Тошкент. 293.
23. Сайфуллаева Р.А. (1994). Ҳозирги ўзбек тилида қўшма гапларнинг формал-функционал талқини. Т.: Фан.
24. Турниёзов Б.Н. (1972). Ҳозирги ўзбек тилида тенг компонентли мураккаб синтактик қурилмалар деривацияси: Филол. Фанлари номзоди. ... дисс. Автореф. Тошкент.
25. Тешабоев, Д. Р. (2022). Эргаш гапли қўшпредикатив бирликлар фалсафий нарса катагерияси сифатида. *Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali*, 2(11), 25-30.
26. Тешабоев, Д. Р. (2022). Эргаш гапли қўшпредикатив бирликлар фалсафий мазмун категорияси сифатида. *Bargarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali*, 2(11), 51-55.
27. Teshboyev, D. R. (2021). On the semantical analysis of the parapredicative units of complex following. *Theoretical & applied science*, (4), 390-392.
28. Тешабоев, Д. Р. (2020). Эргаш гапли қўшма гапларни шакллантиришда антitezанинг ўрни. *Международный журнал искусства слова*, 3(5).
29. Федоров А.К. (1972). Трудные вопросы синтаксиса. М.
30. Якобсон Р. (1985). Избранные работы. М.: Прогресс, 160.